

1. KREDIT MAHSULOTI TO’G’RISIDA MA’LUMOT

Kredit mahsuloti nomi	BIRDAM MAHALLA		
Kredit mahsuloti hududi	Samarqand va Qarshi viloyatlardagi MBXO'larga birlashtirilgan mahallalar uchun		
Mahsulot maqsadi	Maqsadsiz		
Kredit turi	Kredit liniyasi ochmasdan		
Mijoz turi	Faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlari: Yuridik shaxslar, yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat yuritayotgan yakka tartibdagi tadbirkorlar		
Mahalla auditoriyasi	Yuridik shaxsning ta'sischisi yoki direktori yoki yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat yuritayotgan yakka tartibdagi tadbirkor quyidagicha bo'lishi: Yosh tadbirkorlar (18 yoshdan - 30 yoshgacha bo'lgan shaxslar); Ayollar; Nogironligi bor shaxslar; Kam ta'minlanganlar (tegishli tavsiyanoma asosida) *		
Kredit valyutasi	O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasi – so'mda		
Kredit miqdori	75 000 000,00 (yetmish besh million) so'mgacha		
Kredit muddati	60 oygacha		
Imtiyozli davr	6 oy muddatgacha		
Kreditni ajratish shakli	Naqd olish yo'li bilan, sug'urta uchun to'lovlar kredit hisobidan bo'lganda, ssuda hisob raqami orqali sug'urta kompaniyasiga yo'naltirib beriladi.		
Kreditni qaytarish tartibi	Annuitet/Differensial		
Moliyalashtirish manbasi	Bank o'z mablag'lari hisobidan		
Kredit foizlarini to'lash tartibi	Har oyda		
Foiz stavkasi	Kredit muddati 12 oygacha	Kredit muddati 12 oydan 24 oygacha	Kredit muddati 24 oydan 60 oygacha
	Yillik 18 foiz	Yillik 19 foiz	Yillik 20 foiz

2. Kredit ta'minoti

Kredit ta'minoti	Sug'urta kompaniyasining kreditning qaytmaslik xataridan sug'urta polisi ** va talab etilganda boshqa ta'minot shakllari (garov, kafillik) ** Bunda kreditning qaytmaslik xataridan sug'urta polisi uchun sug'urta mukofot puli kredit hisobidan to'lanishi mumkin		
-------------------------	---	--	--

3. Hujjatlar

Hujjatlar to'plami	Yuridik shaxslardan talab etiladigan hujjatlar	<ol style="list-style-type: none"> 1. Kredit arizasi; 2. Ustav, ta'sis hujjatlari, guvohnoma, ta'sischilar, korxonahabari (buxgalteri) pasporti, lavozimga tayinlanishi bo'yicha buyruqlar nusxalari; 3. Kredit olish yuzasidan ta'sischilar roziligi/qarori; 4. Moliyaviy hisobotlar va ma'lumotlar (1-2 shakl, yillik va operativ balans yoyilmalari, boshqa banklardagi hisob raqam aylanmalari, olingan majburiyatlar va boshqa tahlil uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar); 5. Mijoz tomonidan shakllantirilgan va loyiha parametrlari hamda pul oqimlari prognozi ko'rsatilgan holda kredit mablag'larini qaytarilishini asoslab beruvchi biznes reja va/yoki hisob-kitoblar; 6. Zaruriyat bo'lgan holda loyihani amalga oshirish bilan bog'liq boshqa hujjatlar; 7. Kredit ta'minoti bilan bog'liq hujjatlar.
	Yakka tartibdagi (xususiy) tadbirkorlardan talab etiladigan hujjatlar	<ol style="list-style-type: none"> 1. Kredit arizasi; 2. Faoliyat guvohnomasi; 3. Pasport nusxasi; 4. Boshqa banklardagi hisob raqam aylanmalari, olingan majburiyatlar va boshqa tahlil uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar; 5. Mijoz tomonidan shakllantirilgan va loyiha parametrlari hamda pul oqimlari prognozi ko'rsatilgan holda kredit mablag'larini qaytarilishini asoslab beruvchi biznes reja va/yoki hisob-kitoblar; 6. Zaruriyat bo'lgan holda loyihani amalga oshirish bilan bog'liq boshqa hujjatlar; 7. Kredit ta'minoti bilan bog'liq hujjatlar.

4. Qo'shimcha shartlar

Mijozga qo'yiladigan asosiy talablar	<ol style="list-style-type: none"> 1. Mavjud kredit va unga tenglashtirilgan operatsiyalar bo'yicha bank tomonidan kredit arizasi ko'rib chiqish sanasiga mijozning muddati o'tgan kredit qarzdorligi bo'lmashligi; 2. Kreditlar bo'yicha ohirgi 12 oy ichida mijozning kredit tarixida: 30+dan oshgan muddati o'tgan qarzdorliklari 5 tadan ko'p bo'lmashligi; 60+dan oshgan muddati o'tgan qarzdorliklari 3 tadan ko'p bo'lmashligi; 90+dan oshgan muddati o'tgan qarzdorliklari bo'lmashligi; 3. Mijozning Majburiy ijro byurosi tomonidan ochilgan ijro ishi bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan mablag' bo'lmashligi lozim; 4. Ohirgi 2 yilda kredit xizmatlari bo'yicha iqtisodiy sudda da'vo arizalari mavjud bo'lgan va da'vo arizasi qisman yoki to'liq qanoatlantirilgan taqdirda so'rovnoma ko'rib chiqilib, rad etiladi; 5. Avval olingan davlat va ijtimoiy dasturlar bo'yicha olingan kreditlarni to'liq so'ndirilgan bo'lishi kerak.
---	---

Alohida shartlar	* Mijozlar auditoriyasi to'g'ri aniqlanishida kredit ajratilishi rejalashtirilayotgan shaxsni haqiqatda ushbu mahsulot shartlariga to'g'ri kelishi bo'yicha tavsiyanoma rasmiylashtiriladi va bunda quyidagi ma'sullar tomonidan imzolanadi: Mahalla raisi; Mahallaga birtirilgan hokim yordamchisi; Mahalla agenti; Shaxsning segmentidan ya'ni yoshlar yoki ayollar qatlamiga mansub bo'lsa qo'shimcha ravishda Yoshlar faoli yoki Ayollar faoli; Mazkur Modulli kredit bo'yicha hisobot sanasidagi NPL ko'rsatkichi ushbu mahsulot qoldig'iga nisbatan 1%dan oshgan taqdirda kreditlash to'xtatiladi, hisobot sanasidagi NPL ko'rsatkichlari bankning tegishli boshqarmasi tomonidan taqdim etib boriladi. Kreditlash mazkur NPL ko'rsatkichi belgilangan darajadan tushgan taqdirda qayta tiklanadi;
Qo'shimcha xizmatlar	Bank tomonidan biznesni to'g'ri boshlash va yo'lga qo'yish bo'yicha bepul maslahatlar, treninglar, xisob-kitoblar uchun ko'nikmalar berish